

“QISASI RABG‘UZIY” ASARINING O‘RGANILISHI

Mirzarahimova Dilobar Mirzaabdulla qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs magistranti

dilobarmirzarahimova999@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” asari ustida tadqiqot olib borgan olimlar, ular amalga oshirgan ishlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati, bu asarning matnshunoslik va leksik jihatdan o‘rganilganligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: manbashunoslik, matnshunoslik, faksimile, til xususiyatlari, janr xususiyatlari, poetik tili, qo‘lyozma nusxa.

ABSTRACT

In this article, researchers who have conducted research on the work “Qissasi Rabguziy” have provided information on their findings, the work’s significance today, and its study from a textual and lexical perspective.

Key terms: include source analysis, textual analysis, facsimile, language characteristics, genre characteristics, poetic language, and manuscript copies.

KIRISH

Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach tarixiy qadriyatlar, madaniy-mana’viy merosni tiklash, bu qadriyatlarni har tomonlama chuqur o‘rganib, ilmiy izlanishlar asosida ta’lim-tarbiyada foydalanish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham qimmatli tarixiy manbalar qatoridan o‘rin olgan bo‘lib, bu asar payg‘ambarlar hayoti haqidagi ibratli qissalardan tashkil topganligi uchun “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Shuning uchun uning ko‘plab nusxalari dunyoning turli hududlariga olib ketilgan va har xil tillarga tarjima qilingan. Bu esa asarni manbashunoslik jihatidan tadqiq qilish orqali asarning asl nusxasiga yaqin nusxasini aniqlash zaruratini tug‘diradi.

ASOSIY QISM

“Qisasi Rabg‘uziy” asarini birinchilardan bo‘lib tadqiq qilgan N.Ostroumov o‘zi mas’ul bo‘lgan “Talabalarning ijodiy ishlari” nomli Qozon davlat ruhoniylar akademiyasi tomonidan chiqarilgan qo‘llanmada turli dinlar, xususan, islom dini va payg‘ambarlar faoliyatini tadqiq etishda Rabg‘uziy ijodiga bir necha marta murojaat qilgan. N.I.Ilminskiy “Qisasi Rabg‘uziy”ning Osiyo muzeyida saqlanayotgan 361-invertar raqamli nusxasiga asoslangan holda bu asarning to‘la matnini tuzgan¹. E.Fozilov bu asar to‘g‘risida bildirgan fikrlarida quyidagilarni aytib o‘tadi: “Asarning kattagina qismi

¹ 1 Остроумов Н. Труды студентов. - Казан: Университетская типография, 1874. С. 39–41 // <https://dlib.rsl.ru/viewer/01003587296#?page=39>

V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy, S.Ye.Malov, V.L.Kotvich, N.Fon Gaben, G.Ramstedt, A.N.Kononov, P.Sime, Bosim Atalay, E.N.Najib singari atoqli rus va xorijiy turkiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan”².

“Qisasi Rabg’uziy”ni Gronbekning faksimilesi asosida tadqiq etgan Aysu Ata asarning yozilish sababi, mundarijasi, she’rlarning tuzilishi, nusxalari, o’rganilish tarixi va fonetik xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirgan. U “Qisasi Rabg’uziy” asarining turk tilidagi tabdilini Gronbek faksimilesining nusxasi bilan birgalikda chop ettirgan. Shuningdek, olim o’zining tadqiqot ishida Rabg’uziy ijodining o’rganilishi tarixiga ham ahamiyat berib, S.Chag’atay, J.Shinkevich, A.I.Abrajevin, J.Thuru, N.E.Bayshoten, M.V.Dammelarining ilmiy-nazariy qarashlariga o’zining fikrini bildirib o’tgan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi olimlaridan esa J.Shinkevich, A.Abrajevin, A.Xaliullina “Qisasi Rabg’uziy”ning A.Sherbak, E.Tenishev, A.Baskakov, N.Nasilov kabi turkiyshunos olimlar asarning til xususiyatlariga doir turli mulohazalar bildirishgani haqida ham ma’lumot berib o’tganlar. Tatar olimlaridan A.Isxakovaning ilmiy maqolasida asardagi numerativlarning qo’llanilishi, shu bilan birga, G.Gaynutdinova tadqiqotida “Qisasi Rabg’uziy” asaridagi Lut alayhi-s-salom qissasida keltirilgan ot va sifat turkumiga oid so’zlarning lingvistik tahlili berilgan⁴.

XX asrdan boshlab esa bu asarga sharqshunos olimlar alohida e’tibor bera boshladilar. Jumladan, A.Krimskiy, S.Brokkelman, M.F.Ko’prulizoda, A.Samoylovich, H.Zarifov, X.Rasul, A.Hayitmetov kabi sharqshunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlar ham bu yodgorlik haqida muhim fikrlarni bildirishgan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida “Qisasi Rabg’uziy”ning ayrim parchalari rus tiliga tarjima qilinib, lingvistik sharhlar bilan P.M.Melioranskiy, N.F.Katanov, N.F.Ostroumov va boshqalar tomonidan o’quvchilar hukmiga havola etilgan. Shuningdek, bir va ko’p jildlik “O’zbek adabiyoti tarixi” majmualarida, “O’zbek nasri tarixidan” kabi ilmiy adabiyotlarda “Qisasi Rabg’uziy” asari haqida umumlashtiruvchi xulosalar, mulohazalar va tahliliy maqolalar berilgan.

U.Mirzakarimova “Qisasi Rabg’uziy”ning morfologik xususiyatlarini nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o’rgangan. T.G’ofurjonova ushbu asarni o’rganish asnosida yodgorlikning o’zbek nasri rivojida tutgan o’rnini ilmiy- nazariy jihatdan asoslab bergan.

Shu bilan birga, o’zbek adabiyotshunosligida N.Mallayev, A.Qayumov, H.Karomatov, B.Sarimsoqov, E.Fozilov, I.Ostonaqulov, H.Safarova, A.Yunusov va boshqa adabiyotshunoslar “Qisasi Rabg’uziy”ga bag’ishlangan tadqiqotlarini amalga oshirdilar. Bu tadqiqotlar orqali asarning mavzu ko’lami, janr xususiyatlari, poetik tili va shunga o’xshash boshqa masalalar atroflicha yoritildi.

Adabiyotshunos N.Mallayev o’zining “O’zbek adabiyoti tarixi” nomli darslik-tadqiqotida “Qisasi Rabg’uziy”ni davr nuqtai nazaridan bir muncha siqiq tadqiq qilgan bo’lsa, I.Ostonaqulov o’zining “Qisas ar-Rabg’uziy – adabiy asar” mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida uning faqat diniy ruhdagi asargina emas, balki o’nlab adabiy janrlarni o’z ichiga olgan sinkretik (qorishiq) yirik adabiy manba ekanini asoslab berdi.

Mustaqillik yillarida yurtimizning atoqli turkiyshunos olimlari E. Fozilov, A. Yunusov, H. Dadaboyev, Yu. Shokirov tomonidan asarning ikki jildli kirill alifbosidagi nashri chop etildi.

² Bu haqda qarang: Xaliullina A.R. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного памятника XIV в «Кисас ал анбия» Насриддина Рабгузи Казан: Казанский государственный университет, 2002. - С.17.

³ Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. 1-kitob. Toshkent: Yozuvchi, 1990. B. 5

⁴ Çağatay S. Türk Lehçeleri Örnekleri [I]. – Ankara, 1950. – S. 141-151; Köprülü F. Rabgûzî ve Kısasü'l-Enbiyâ'sı. Türk Edebiyatı Tarihi. – İstanbul, 1980. – S. 286-289

2018-yilda asarning 1904-yili Samarqandda chop etilgan nusxasi B. Abdushukurov tomonidan o'zbek adabiy tiliga moslab, izohlar bilan taqdim qilingan. Xususan, B.Abdushukurovning doktorlik dissertatsiyasi asarning til xususiyatlariga bag'ishlangan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Unda asarda qo'llangan arab va fors tillaridan o'zlashgan leksemalarning turkiy affikslar bilan birikib yangi so'z hosil qilishdagi ahamiyati ochib berilgan hamda ayrim arabcha o'zlashmalar genealogiyasiga oydinlik kiritilgan. Shuningdek, asar yuzasidan bir nechta doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan.

"Qisasi Rabg'uziy" asariga ko'plab mamlakatlarda qimmatli tarixiy yodgorlik sifatida qaraladi. Xususan, Turkiya G'oziy universiteti Fan va adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti bo'limi tomonidan "Xorazm qipchoq turkchasi dars mashg'ulotlari" seriyasida Xorazmda yaratilgan o'nlab asarlar qatorida "Qisasi Rabg'uziy"ning ham e'tirof etilgani diqqatga sazovor.

A.Xaliullina "Qisasi Rabg'uziy" asarining dunyo fondlarida 35 ta nusxasi borligi haqida ma'lumot bergan. Bu nusxalar orasida barcha g'arblik turkolog olimlar "Qisasi Rabg'uziy"ning London shahridagi "Britaniya" kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasini (garchi bu nusxa XV asrda, asar dunyoga kelganidan qariyb ikki asr o'tib ko'chirilganiga qaramay), asl qo'lyozmaga eng yaqin nusxa deb hisoblashadi. "Qisasi Rabg'uziy"ning qo'lyozma nusxalarining aksariyati o'zbek tili va adabiyotining tarixini o'qib-o'rganish uchun ulkan bir manba hisoblanadi. "Qisasi Rabg'uziy"ning qo'lyozma nusxalarida farqlar bo'lsa-da, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Boisi ularning har biri mohiyat e'tibori bilan qaralganda, bir butunlikka ega mukammal qo'lyozma nusxalardir. Bugungi kunda ushbu asarning Toshkentda, Fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida ham ikki nusxasi saqlanmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qisasi Rabg'uziy asari qadimiy-tarixiy manba bo'lib, bugunga qadar ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Bu asar ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va bunday tadqiqotlar hozirda ham davom etmoqda. Tadqiqotchi olimlar asarni matnshunoslik, leksiko-grafik va til xususiyatlari jihatidan o'rganganlar. Bugungi kunga kelib bu asarni manbashunoslik jihatidan tadqiq etish va asarning qo'lyozma nusxalari haqida yetarli ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Madraimov A, Fuzailova. G. Manbashunoslik. –Toshkent: Fan, 2007. -294 b.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. 1 tom: Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. - Toshkent: Fan, 1978.
3. Raxmonov, E. K. o'g'li, Qobilov, F. S. o'g'li, & Berdimuradov, X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
4. Qobilov, F. S. o'g'li, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>

5. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN QO'SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>
6. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
7. Rakhmonov, J. (2022). INITIATIVES OF THE WORLD HEALTH ORGANIZATION AND THE INTERNATIONAL OLYMPIC COMMITTEE FOR HEALTHY LIFESTYLES ON INTERNATIONAL LEGAL ISSUES. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 16-18.
8. Jaloliddin, R. (2023). INVESTOR-STATE DISPUTE SETTLEMENT IN INTERNATIONAL PUBLIC LAW: AN EVALUATION OF RECENT DEVELOPMENTS. International Journal Of Law And Criminology, 3(04), 1-4.
9. Hamroyeva Sh.Sh., & Muhidova G. (2018). PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. Мировая наука, (5 (14)), 37-39.
10. Hamroyeva Sh.Sh. (2018). SIR WALTER SCOTT'S ARTISTIC SKILL IN THE EXPRESSION OF HISTORICAL FACTS AND LITERARY FICTION IN HIS HISTORICAL NOVELS. Мировая наука, (5 (14)), 35-37.
11. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI asrdan XVIII asrning 70- yillarigacha). Besh tomlik. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 152 b.
12. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. –Toshkent: ToshDSHI, 2000. -172 b.